

## IX-XV ASRLARDA KO`HNA XORAZM SHAHARLARINING O`RGANILISHI TARIXI

*Abdullayev Zohidjon*

*Namangan davlat universiteti*

*Tarix yo`nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada IX-XV asrlarda ko`hna Xorazm shaharlarining o`rganilishi tarixi haqida so`z yuritilgan bo`lib, rixiy me`moriy yodgorliklarning o`ziga xosligi ko`rsatilgan.

**Kalit so`zlar:** tarixiy me`moriy yodgorliklar, Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi, shaharlar, manzilgothlar, karvonsaroylar, geograflar, geomorfolog, antropolog, tuproqshunos, zoolog, biolog, tilshunoslar.

O`zbekiston Respublikasi mustaqillik sharofati bilan o`z taraqqiyotining yangi davriga kirdi. Xalqimiz o`zining boy tarixiy, madaniy va ma`naviy merosiga ega bo`ldi. Yurtboshimiz tarixsiz kelajak yo`qligini, vatandoshimiz Abdulla Qodiriy ta`biri bilan aytganda, moziyga qaytib ish ko`rmoq kelajagini e`tiborga olib talaba yoshlarga Markaziy Osiyo me`morchilik san`ati tarixi fanning o`qitilishi ibtidoiy davrdan to bugungi kungacha mavjud bo`lgan tarixiy me`moriy yodgorliklarning o`ziga xosligi, qurilish uslublari xaqida tasavvurga ega bo`lishi zarur. Ular Markaziy Osiyo hududidagi muhim ahamiyatga ega bo`lgan me`moriy obidalarni qurilish prinsiplarini, xususiyatlarini bilishi va ulardan foydalana olishi kerak. Shuningdek, tarixiy me`moriy yodgorliklarni qurilgan davrini aniqlashni bilishi lozim.

IX-XV asrlar Xorazm savdo shaharlari to`g`risidagi arab-fors, evropa va eski o`zbek tilidagi manbalar ma`lumotlari umumiy holatda savdo shaharlarining xo`jalik hayoti, mavqei to`g`risida atroflicha ma`lumotlar bera olmaydi.

Xorazmning qadimiy tarixi, savdo shaharlari to`g`risida XIX asr rus geograflari, tarixchilari, elchilari, harbiy topograflari, etnograf va sayyohlari tomonidan chop qilingan ko`pgina asarlar va maqolalardan ham ma`lumotlar topishimiz mumkin. Xorazmga bu davrda birinchi ilmiy ekspeditsiyalar yuborilgan. Yo`llar, mustahkamlangan qal`a va qo`rg`onlar, iqtisodiyot to`g`risidagi ma`lumotlar to`plash bilan bir qatorda, ular vohaning qadimgi tarixini ham o`rganganlar. Natijada Xorazmning o`rta asrlar shahar madaniyati masalalari to`g`risidagi bir qancha ilmiy asarlar, hisobotlar paydo bo`ldi. Bu davrga Xiva vohasi tavsiflari ham taalluqli bo`lib, ular ko`proq ilmiy xususiyatga ega bo`lgan.

XIX asr manbalariga rus geograf, etnograf, tarixchi, rassom, harbiy topograf va sayyohlari asarlari mansub bo`lib, ular jumlasiga: A.V.Butakov, G.Baziner, G.I.Danilevskiy, V.V.Grigorev, N.I.Veselovskiy, V.V.Bartold, V.G.Tizengauzen, A.L.Kun, A.N.Samoylovich, M.I.Ivanin, V.V.Velyaminov-Zernov, M.N.Galkin, N.V.Xano`kov, A.I.Levshin, P.I.Nebolsin, N.S.Nikitin, A.V.Kaulbars va shu kabi bir qancha olimlar asarlarini kiritish mumkin.

Bular orasida, ayniqsa, V.V.Grigorev, N.I.Veselovskiy, V.V.Bartold va V.G.Tizengauzen asarlari Xorazmning X-XV asrlardagi savdo shaharlari to`g`risidagi o`rta asrlar manbalaridagi ma`lumotlarni keltirilganligidan va o`rganishdan tashqari,

ularni tanqidiy o'rganish borasidagi ilk urinishlar bo'lganligi bilan ham qimmatlidir.

Evropaning boshqa mamlakatlari olimlari ichida ham ba'zilar o'z asarlarida Xorazm savdo shaharlari, ularning joylashgan o'rni, iqtisodiy ahvoli va boshqa mamlakatlar savdo shaharlari orasida egallagan mavqei to'g'risida ma'lumotlar keltirish bilan birga, o'z fikrlarini ham bildirishga harakat qilganlar. Masalan, ingliz sayohatchisi G.Lansdell esdaliklarida Xorazm yodgorliklariga bag'ishlangan bo'lim ham mavjud. Ammo shuni qayd qilish lozimki, Lansdell Xorazm yodgorliklarining to'liq tafsilotini keltirib o'ta olmagan. Yana bir muallif – G.Le Strenj, o'zining musulmon dunyosining sharqida joylashgan davlatlardagi yodgorliklarga bag'ishlangan asarida Xorazm shaharlarini ham tasvirlab o'tadi. G.Le Strenj tomonidan tuzilgan kartada, o'rta asrlar mualliflari ma'lumotlari asosida Jurjon (Urganch), Kat, Mizdahqon, Hozorasp, Xiva shaharlari va bir qancha karvonsaroylar hamda manzilgohlar ko'rsatib o'tilgan edi.

XIX asr mashhur golland sharqshunosi de Gue ham Xorazm savdo shaharlarini o'rganib, ular haqida bir qancha asarlar yozib qoldirgan. Mashhur boshqird tarixchi olimi va siyosiy arbobi Ahmad Zakiy Validiy To'g'onning asarlari ham keyingi vaqtlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Ahmad Za'qiy Validiy To'g'on ham X-XV asrlar Xorazm savdo shaharlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradiki, bu borada hatto V.V.Bartold va M.Tomasheklarning toponimik nomlarni o'qish borasidagi bir qancha xatolarini ko'rsatib o'tgan. U mazkur mavzu tadqiqotchilariga Bartold, Tomashek va boshqa evropalik olimlar asarlaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanishni uqtiradi.

Xususan, Bartold eslatib o'tgan Nuzvar shahri nomini Xadravar, Nufuzravar, Buran, Varan, Ravan, Buruzdum, Savoron Birzum yoki Burzun kabi o'qish mumkinki, ammo Nuzvar deb o'qilsa xato bo'lishini ko'rsatib o'tadi. Xullas, Ahmad Zakiy Validiy To'g'on asarlari yanada chuqur o'rganilishini talab etadiki, ular o'z tadqiqotchilarini kutmoqda. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan, XIX asr va XX asr boshlari rus va boshqa evropalik olimlarning tadqiqotlari Xorazmning X-XV asrlardagi savdo shaharlarini o'rganish borasidagi o'ziga xos yangi bosqich bo'lganligi va bu xususdagi bilimlarimizni boyituvchi yangidan-yangi ma'lumotlar to'planganligi bilan ajralib turadi. Ammo bu tadqiqotlar to'g'risida ham shuni qayd qilib o'tishimiz lozimki, ular o'rta asrlar manbalari bilan Xorazm savdo shaharlari va ularning jahon savdosida tutgan o'rni muammosini hal etishimizda faqat dastlabki urinish bo'lganini ko'rish mumkin, xolos. Yuqoridagilardan shu narsa aniq bo'ladiki, mazkur mavzuga oid manbalar va tadqiqotlar qanchalik ko'p bo'lishidan qat'iy nazar, bular ushbu mavzuni atroflicha o'rganishimiz uchun hanuz etarli darajada emas. Uni muayyanlashtirish uchun boshqa sohalarga (arxeologiya, etnografiya, lingvistika, toponimika, arxitektura, numizmatika) oid yangidan-yangi ma'lumotlarga, ayniqsa, bulardan arxeologik tadqiqotlar natijalariga murojaat qilish orqaligina erishish mumkinligi ma'lum bo'lib qoldi.

Xorazmning X-XV asrlar savdo shaharlarini arxeologik tadqiqotlar yordamida batafsil o'rganish XX asrning 20-30-yillarida boshlanganligini qayd qilish kerak. Xorazm savdo shaharlarini arxeologik jihatdan o'rganish davrini 1928-1929 yillardan boshlanganligini ta'kidlash lozim. 1928-1929 yillarda xorazmshohlarning o'rta asrlardagi poytaxti Urganch (Ko'hna Urganch) atrofida va hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasining Xo'jayli shahri yaqinidagi Kofirqal'a (Gaurqal'a) xarobalari

o'rnidagi o'rta asrlar yirik savdo markazi Mizdahqonda A.Yu.Yakubovskiy ekspeditsiyasi ish olib borgan. A.Yu.Yakubovskiy Urganch va Mizdahqon shaharlari topografiyasini birinchi marta ilmiy asosda yaratgan hamda bu xususda ma'lumotlar bergan edi. U tarixiy manbalar va arxeologik tadqiqot natijalarini umumlashtirib, mazkur shaharlar tarixini o'rgandi. Ammo muallif tomonidan ko'pgina masalalar muammoligicha qoldirildi. 1934 yilda Turkmanistonning Toshhovuz viloyatida yana bir o'rta asr savdo shahri – Zamahshar shahrining harobalarida M.V.Voevodskiy ekspeditsiyasi ish olib bordi. 1936-1937 yillarda Janubiy Qoraqalpog'iston hududidagi Guldursun va Norinjon o'rta asr shaharlari xarobalarida Ya.G'.G'ulomov ekspeditsiyasi faoliyat ko'rsatgan edi. Yuqoridagi savdo shaharlarida 1928-1929, 1934 va 1936-1937 yillarda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar yalpi Xorazm tarixi bilan bir qatorda, uning savdo shaharlarini o'rganishning ham birinchi davri hisoblanib, mavzumizning eshigini ochib berdi. X-XV asrlar savdo shaharlarini o'rganishning ikkinchi davri, mashhur arxeolog va etnograf S.P.Tolstov boshchiligida 1937 yilda tuzilgan

Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu ekspeditsiya 40 yildan ortiqroq vaqt davomida juda ko'p o'rta asrlar yodgorliklarini: shaharlar, manzilgohlar, karvonsaroylar va shu kabi yodgorliklarni aniqladi hamda ilmiy o'rgandi. Bu arxeologik ekspeditsiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, u kompleks metodda ish olib bordi. Ya'ni tarixiy yodgorliklarni o'rganish ishiga arxeolog va etnograflardan tashqari, geograflar, geomorfolog, antropolog, tuproqshunos, zoolog, biolog, tilshunoslar va ershunoslar ham taklif qilindiki, bu, o'z navbatida, mazkur yodgorliklarni har taraflama mukammal, ilmiy tadqiq qilish imkonini berdi. Natijada juda ko'pgina yodgorliklar o'rta asr manbalarida ko'rsatilgan savdo shaharlari bilan solishtirib aniqlandi. O'rta asr manbalarida ko'rsatib o'tilgan shaharlardan tashqari, manbalarda eslatilmagan yoki manbalardagi qaysi shaharga to'g'ri kelishi aniqlanmagan X-XV asrlarga oid yodgorliklari ham topib o'rganildi. Ayniqsa, arxeologik tadqiqotlarda aviatsiyadan foydalanish juda katta ahamiyatga ega bo'ldiki, ayrim qismlarini erdan turib mutlaqo kuzatib bo'lmaydigan yoki qiyinlik bilan kuzatiladigan shahar va qishloqlarning joylashishini aniqlash imkoniyati tug'ildi; erdan turib mutlaqo ko'rib bo'lmaydigan yangi ob'ektlarni ham topish mumkin bo'ldi. Shu o'rinda ba'zi yirik savdo markazlarida olib borilgan tadqiqot ishlari solnomasini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Xorazmning butun rivojlangan o'rta asr davomida, ya'ni X-XV asrlardagi eng yirik savdo markazi bo'lgan Urganchda (Ko'hna Urganchda) arxeologik tadqiqot ishlari, yuqorida aytib o'tganimizdek, 1928-1929 yillarda boshlangan edi. Ammo unda bu shahar tarixining ko'pgina qirralarini ochib berish imkoni bo'lmagan edi. 1952 yilda Urganchda mukammal arxeologik tadqiqotlar natijasida u mufassal o'rganildi va o'rta asr manbalaridagi ma'lumotlar to'la tasdiqlandi. Yirik savdo markazlaridan biri Shemaxaqal'ada arxeologik tadqiqotlar 1947 yilda boshlandi. 1948 yilda shahar N.N.Vakturskaya tomonidan o'rganildi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida juda ko'pgina hunarmandchilik mahsulotlari topildiki, u shaharning o'rta asrlarda yirik savdo-hunarmandchilik markazi bo'lganligini ko'rsatadi. Ammo Shemaxaqal'aning o'rta asr manbalaridagi qaysi shaharga to'g'ri kelishi hali uzil-kesil aniqlanmagan.

X-XV asrlar savdo shaharlarini o'rganishning uchinchi davri 1958 yilda

O'zbekiston Fanlar akademiyasining Qoraqalpog'iston filiali arxeologiya bo'limining tashkil topishi bilan uzviy bog'liqdir. Bo'lim olimlari Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasidan mustaqil arxeologik tadqiqotlar o'tkaza boshladi. Bu ilmiy muassasa tomonidan 1958-1988 yillar davomida juda ko'plagan arxeologik ekspeditsiyalar amalga oshirildi. 1958-1961 yillar davomida Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tomonidan Shahrlilik, Puljoy, Bug'roxon, Munchoqli, Zamahshar, Tuproqqal'a, Yorbakirqal'a va Hazorasp kabi savdo shaharlari ham o'rganib chiqildi. Bular natijalari X-XV asrlar savdo markazlari to'g'risidagi qarashlarimizni yangidan-yangi ma'lumotlar bilan boyitdi. 1962, 1964-1965 va 1966 yillarda O'zbekiston FA Qoraqalpog'iston bo'limining V.N.Yagodin rahbarligidagi guruhi tomonidan yana bir yirik savdo markazi Mizdahqonda arxeologik qazuv ishlari olib borildi. Bu tadqiqotlar natijalari o'rta asrlar manbalarida eslatib o'tilgan ma'lumotlarni to'la tasdiqladi. Ya'ni, Mizdahqon X-XV asrlar davomida Xorazmning eng yirik, ba'zida Urganchdan keyingi yirik savdo markazi bo'lganligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi. 1963, 1968-1971 yillar davomida Qoraqalpog'iston arxeologlari Yu.P.Mano'lov rahbarligida tadqiqotlarni davom ettirib, o'ng qirg'oq Amudaryo bo'ylab arxeologik ishlar olib borib, Kat, Abu Muslimqal'a, Janpikqal'a yodgorliklarini o'rganib chiqdilar. Bu arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan eng muhim narsa shu bo'ldiki, Ibn Battuta ta'kidlagan, o'ng qirg'oq Xorazmda Buxoroga qadar Qiyot (Kat)dan boshqa shahar yo'q degan ma'lumoti unchalik haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Arxeologik tadqiqotlar samarasi o'laroq o'ng qirg'oq Xorazm savdo shaharlaridan topilgan juda boy materiallar ayniqsa, ko'plagan Oltin O'rda tangalari shuni ko'rsatadiki, mo'g'ul bosqinidan keyin ham o'ng qirg'oq Xorazm savdo shaharlari asta-sekin bo'lsa-da, o'z qaddini tiklab olganlar. Ammo, ulardan hech qaysisi X-XIII asrlardagi darajasiga eta olmagan. 1973, 1978-1981, 1981-1983, 1985-1987 yillarda Janpiqqal'ada, 1980, 1985, 1986-1987 yillarda Mizdahqonda, 1963, 1965 yillarda Shahrlilikda, 1973-1974 yillarda Vayangan (Ardaxushmisan)da olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Xorazm savdo shaharlarining topografiyasi, xo'jalik hayotini aniqlash bilan birga, ularning olib borgan savdo aloqalarining yo'nalishlarini hamda muayyan bir o'lkadan (masalan, Erondan, Volgabo'yidan va hokazo) qanday mahsulotlar keltirilganligini yoki Xorazmdan shu o'lkalarga qanday mollar chiqarilganligini to'liq bo'lmasada, aniqlash imkonini berdi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan savdo shaharlaridan tashqari, X-XV asrlarda Xorazm savdo shaharlari qatoriga kirgan boshqa savdo shaharlarida ham arxeologik tadqiqot ishlari o'tkazilgan. Xorazmning XIII-XIV asrlarda umum Evroosiyo savdosida tutgan o'rni, shu davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, Oltin O'rda davlati iqtisodiy-madaniy hayotida tutgan o'rni mavzusini yoritishda ayniqsa qoraqalpoq arxeologi va tarixchi olimi M.Sh.Qdo'rniyozovning xizmatlari katta. U bu mavzuga oid ko'plagan monografiya va maqolalar muallifidir. U yana Xorazmning Xorazmning XIII-XIV asrlarda Buyuk Ipak yo'li savdosida tutgan o'rni ancha salmoqli bo'lganligini yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar yordamida isbotlab berdi.

Savdo shaharlari tarixini, ularning xo'jalik hayotini o'rganishda yana karvon yo'llarini, ularning yo'nalishini o'rganish ham juda muhim ahamiyatga ega. 1930-yillardan tortib to 90-yillargacha bo'lgan davr ichida Xorazm savdo shaharlarining qo'shni va uzoq o'lkalar bilan olib borgan savdo munosabatlarini aniqlash imkonini beruvchi bir qancha karvon yo'llari arxeologik jihatdan tadqiq qilindi. Shunday karvon

yo'llaridan biri Xorazm savdo shaharlarini ko'chmanchilar va Sharqiy Evropa bilan bog'lovchi yo'l bo'lib, u Ustyurt platosi ustidan o'tgan. Hali XIX asrdagi rus geograflari, elchilari va sayyohlari Ustyurtdan o'tishda juda ko'p minora, karvonsaroy va sardobalar harobalariga duch kelganlar va ular bu yodgorliklarni tasvirlashga, o'rganishga harakat qilganlar. Ammo faqat 1946 yilda bu erlarni arxeologik jihatdan o'rganishga kirishgan Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi hodimlarigina bu xarobalarning karvonsaroylar bo'lganligi, bu cho'zilib ketgan xarobalar tizimi esa ular orqali karvon yo'li o'tganligini to'liq aniqlab, isbotladilar. Bu karvon yo'lidagi Buloq, Qusbuloq, Belovli, Churuk va Uchquduq karvonsaroylari S.P.Tolstov tomonidan X-XI asrlarga taalluqli ekanligi ta'qidlandi. 1950 yilda bu erda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari qayta arxeologik tadqiqotlar o'tkazishi natijasida ular XI-XIII asrlarga xos deb belgilandi. 1964 yilda bu erda arxeologik tadqiqot olib borgan qoraqalpoq arxeologi E.Bijanov bu karvonsaroylar xorazmshohlar davrida qurilib, ulardan juda keng miqyosda XIII-XIV asrlarda foydalanganliklarini aniqladi. Keyinchalik, 1971-1975 yillarda Ustyurtni V.N.Yagodin rahbarligidagi O'zbekiston FA Qoraqalpoq filiali, arxeologiya bo'limlari xodimlari sistemali o'rganishga kirishdi. Ammo bu karvon yo'lidagi karvonsaroylarni 1975-1978 yillarda Yu.P.Mano'lov rahbarligida qoraqalpoq arxeologlari atroflicha o'rganib chiqdilar. Aynan shu guruh tomonidan bu erda ishlar 1981 yilda ham davom ettirildi. Natijada Xorazm savdo shaharlarining Sharqiy Evropa bilan savdo munosabatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'ldiruvchi juda boy materiallar to'plandi. Bu karvonsaroylar XIV asr o'rtasida qurilib, XV asr oxirigacha xizmat etgani aniqlandi.

Xorazm savdo shaharlarining Movarounnahr, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bilan olib borgan savdo yo'llarida ham arxeologik tadqiqotlar o'tkazilib, bu mavzuni yoritishga yordam beruvchi juda boy materiallar to'plandi. Xorazmni Marv va Xuroson bilan bog'lovchi yo'lining shimoliy tarmog'i 1949-1953 yillarda S.P.Tolstov tomonidan o'rganib chiqildi. 1960, 1966 yillarda esa u K.Adikov va M.E.Masson tomonidan ham tekshirildi. Bu yo'lining Eron bilan bog'lovchi janubiy tarmog'i esa 1961 yilda E.Atagarro'ev va X.Yusupov, 1970, 1972 yillarda X.Yusupov tomonidan o'rganildi. Qoraqum orqali o'tgan bu savdo yo'lini yana 1980 yilda D.Durdo'ev ham tekshirgan edi. Bu yo'llardan tashqari Amudaryoning chap qirg'og'i bo'ylab o'tgan karvon yo'li ham mavjud bo'lib, bu yo'lni birinchi marta 1939 yilda S.A.Ershov va S.P.Tolstovlar tadqiq qilgan bo'lsalar, M.E.Masson bu erda 1954 va 1966 yillar arxeologik tadqiqotlar o'tkazdi. 1972-1975 yillarda esa bu yo'lda XAEE marshrut va turg'un arxeologik tadqiqotlar olib bordi. Natijada bu yo'l X-XV asrlardagi eng qulay va serqatnov yo'l bo'lganligi aniqlandi.

Bundan tashqari, yuqoridagi arxeologik tadqiqotlar Xorazm savdo shaharlarining Buyuk Ipak yo'lining janubiy tarmog'i va uning kichik-kichik tarmoqlari orqali olib borgan savdo munosabatlarining qay darajada bo'lganligini va qanday mahsulotlar chiqarilgan yoki keltirilganligini aniqlovchi boy materiallar to'plash imkonini berdi. Xullas, yuqorida ko'rsatib o'tgan tadqiqotlarning muhimligini e'tirof etish bilan birga, shuni qayd qilish kerakki, ularda mualliflar o'z oldilariga Xorazmning X-XV asrlar savdo markazlarining o'rta Sharq va Evropa mamlakatlari, ko'chmanchilar dunyosi bilan savdo munosabatlarini izchil va muntazam ravishda umumlashtirish vazifasini qo'ymaydilar. Buning ustiga mazkur asar va tadqiqotlarda Xorazm savdo markazlari

to'g'risidagi qarashlari faqat arxeologik yoki faqat toponimik, geografik yo'sinda tahlil qilinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alimov U. O'rta asrlarda Movaraunnahr bog'chiligi tarixi. T., 1983.
2. Uralov A.S., Xojixonov M. Temuriylar ma'naviyati va madaniyat. Samarqand 1999.
3. Ojegov S.S., O'ralov A.S., Rahimov K.J. Landshaft arxitekturasi va dizayn. Samarqand, 2003.
4. Uralov A. Markaziy Osiyoning islomgacha davridagi bog'-parklari va ularning keyingi davrlardagi izchilligi. Me'morchilik va qurilish muammolari. 2001. № 2.
5. Pugachenkova G.A. Iz xudojestvennoy sokrovishnisы Srednego Vostoka. T., 1986.
6. Bulatov M.S. Sadы i parki Temura i Temuridov – Maskan, 2001, № 7.
7. Begaliyev N. Samarqand darvozalari – Zarafshon gazetasi. 1996 y. 3-fevral soni.